

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 1 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN  СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА 

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	YASHIL SUG'URTA ORQALI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA EKOLOGIYANI ASRASH <i>Yuldashev Akromjon Qurbonnazarovich, To'rayev Sherxon Mo'min o'g'li</i>	3
2.	IQLIM O'ZGARISHI TA'SIRIDAGI MOLIYAVIY YO'QOTISHLARDAN HIMOYALASHDA INDEKS SUG'URTALASHNI JORIY ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	6
3.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH JARAYONLARI TAHLILI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	9
4.	СУГУРТА БОЗОРИ ВА МОЛИЯВИЙ КОНВЕРГЕНЦИЯ ЖАРАЁНИДА УНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ <i>Халиков Умид Рахматуллаевич</i>	13
5.	СУГУРТА КОМПАНИЯЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИНИ ЖОЙЛАШТИРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ <i>Маврулова Нилуфар Абдухалиловна</i>	18
6.	REGULATORY AND FINANCIAL BARRIERS TO SME DEVELOPMENT IN EMERGING MARKETS (IN CASE OF UZBEKISTAN) <i>Tojiyev Abror Rakhmonalievich, Rakhmonaliev Abbos Abror ugli</i>	21
7.	TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK MAHSULOTLARINI SOTISH AMALIYOTINING RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI <i>Yunusova Shaxlo Raximdjanoyna</i>	24
8.	USING MARKETING STRATEGIES TO ENHANCE THE COMPETITIVENESS OF THE NATIONAL ECONOMY <i>Bobomurodov Kayimjon Homidovich</i>	29
9.	НЕЙРОМАРКЕТИНГ И ПОВЕДЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ: ГЛУБОКОЕ ПОНИМАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ВЫБОРА <i>Юлдашев Жамшид Абрарович</i>	32
10.	ЎЗБЕКИСТОН АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИДАГИ ТАФОВУТЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ- СТАТИСТИК ТАХЛИЛИ <i>Илёсова Дилбар Исмоил қизи</i>	35
11.	KORPORATIV TUZILMALARDA AKSIYALAR BOZORIDAN MOLIYAVIY RESURLAR JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xasanov Xayrullo Nasrullayevich</i>	38
12.	ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH UCHUN KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH <i>Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi, Tohirjonov Rahmatillo Farhodjon o'g'li, Hayitaliyev Jahongir Komiljon o'g'li</i>	41
13.	SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASIGA OID UMUMIY NAZARIYA VA YONDASHUVLAR <i>Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna</i>	43



SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASIGA OID UMUMIY NAZARIYA VA YONDASHUVLAR

Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ITM doktoranti (DSc.), PhD.,

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 2 Issue: 1 DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss1/254	Ushbu maqolada soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga oid umumiy yondashuvlar batafsil tahlil qilinib, mavjud metodologiyalar, ularning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida soliq bazasini aniqlashning innovatsion yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Qolaversa, maqola davomida soliq bazasini aniqlash metodologiyasidagi mavjud muammolar o'rganilgan holda, ularni bartaraf etish mumkin bo'lgan taklif va tavsiyalar berilgan.
KEYWORDS	<i>soliqlar, soliq tizimi, soliq siyosati, soliq bazasi, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi, soliq to'lovchilar, soliq obyekti, soliq imtiyozlari, davlat moliyasi, iqtisod.</i>

Kirish (Введение /Introduction)

Soliq bazasini aniqlash jarayoni har bir davlatning iqtisodiy siyosati va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. Soliq bazasi davlatning soliq tizimidan foydalanishi, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan resurslarni shakllantiradi. Shuningdek, bu jarayon davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni rivojlantirish va iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasi – bu soliq tizimini tashkil etish va boshqarish jarayonida qo'llaniladigan usul va tamoyillar to'plamidir. Ushbu metodologiya soliq qonunchiligi, iqtisodiy ma'lumotlar, statistika va boshqa faktlarni o'z ichiga olgan holda yaratilib, bu jarayonda ko'plab omillarni, xususan, iqtisodiy faoliyat turlari, aholi daromadlari, iste'mol va investitsiya ko'rsatkichlari, shuningdek, xalqaro tajriba va standartlarni hisobga olish zarurdir.

Har bir mamlakatda soliq bazasini aniqlashga oid yondashuvlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bunga sabab, har bir davlatning iqtisodiy tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, madaniyati va tarixiy konteksti turlicha ekanligidir. Shu bois, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi samaradorligini oshirish uchun keng qamrovli tadqiqotlar va tahlillar o'tkazishni taqazo qiladi.

Bugungi neogloballashuv sharoiti soliq bazasini kengaytirish va uning samaradorligini oshirish masalasini yana ham dolzarb etib qo'ymoqda. Albatta, bu jarayonning muvaffaqiyati esa davlatning iqtisodiy siyosatini, soliq qonunchiligini va boshqaruv tizimini takomillashtirishga bog'liqdir. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, globalizatsiya va xalqaro savdo aloqalarining kengayishi soliq bazasini aniqlashda yangi yondashuvlar va metodlarni talab qiladi.

Ushbu maqolada soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga oid umumiy yondashuvlar batafsil tahlil qilinib, mavjud metodologiyalar, ularning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida soliq bazasini aniqlashning innovatsion yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Qolaversa, maqola davomida turli mamlakatlardagi soliq tizimlarining tajribalari ham o'rganiladiki, bu respublikamiz soliq tizimi istiqbolida soliq bazasini yanada kengaytirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы / Literature review).

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasi iqtisodiy nazariyalar, amaliy tadqiqotlar va soliq siyosati kontekstida muhim ahamiyatga ega bo'lgan

mavzu hisoblanib, har bir davrda har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatidan kelib chiqqan holda tashkil etiladigan jarayon sanaladi. Shu sababdan bu mavzuni tadqiq etishda turli iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan turlicha yondashuvlarni ko'rish maqsadga muvofiq. Xususan, klassik iqtisodchilar ilgari surgan g'oyalar, neoklassik iqtisodchilar bildirgan fikrlar, zamonaviy iqtisodchilar olib borgan tadqiqotlarning barchasida soliq bazasini aniqlash tartiblari borasidagi nazariyalar turlicha keltirilgan va tahlil etilgan. Jumladan, T. Piketty va E. Saez tadqiqotlarida soliq tizimining optimal dizayni va progressiv soliq stavkalari orqali daromad taqsimotini yaxshilash masalalari o'rganilgan bo'lib, mualliflar soliq bazasini aniqlash metodologiyasida ijtimoiy tenglikni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydilar [1].

D. Kahneman va A. Tversky asarida inson qaror qabul qilish jarayonlari tahlil qilingan bo'lib, soliq to'lovchilarning qarorlari qanday qilib soliq bazasini aniqlashga ta'sir etishi bo'yicha muhokamalarni qamrab olgan bo'lsa [2], R. Musgrave o'z asarida davlat moliyasi nazariyasini ishlab chiqdi. Bu esa soliq bazasini aniqlash metodologiyasini ishlab chiqishda davlatning rolini tushunishga yordam beradi. U bu tadqiqotlari orqali soliq siyosatini ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan baholashga uringan [3].

A. Garcia ham soliq siyosati va iqtisodiy rivojlanish sohasida tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri sanalib, soliq bazasi va soliq elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda soliq imtiyozlari va chegirmalarining iqtisodiy faoliyatga ta'sirini tahlil qilgan. U, shuningdek, o'z asarlarida soliq bazasining kengayishi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini izohlab o'tgan bo'lsa [4], M. Feldstein soliq bazasining kengayishi va soliq stavkalari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, yuqori soliq stavkalari iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlagan. U soliq bazasini aniqlash metodologiyasi orqali soliq bazasini kengaytirish davlat moliyasini yaxshilashi mumkinligini ko'rsatib bergan [5].

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga oid yana bir necha ilmiy asarlar mavjud bo'lib, ularning ba'zilar sifatida J. Gruber [6], S. Jones [7], B. Salani [8], A. Razini [9] hamda J. Slemrod va J. Bakija kabilarni ham e'tirof etish maqsadga muvofiqdir [10].

Tadqiqot usullari (Методология/Methodology).

Tadqiqot metodologiyasi sifatida turli davr iqtisodchi olimlarining soliq bazasini aniqlash metodologiyasi haqidagi fikrlari, ilgari surgan g'oyalari, jahon soliq tizimida foydalaniladigan usullar va soliq siyosatida

soliq bazasini aniqlash tartibiga oid qarashlarni chuqur o'rganish orqali analiz va sintez, kuzatish, ilmiy mushohada, ma'lumotlarni guruhlash hamda klassifikatsiyalash orqali nazariy tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasi iqtisodiy rivojlanish va davlat moliya siyosatining muhim jihatlari biri ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu jarayon davlat siyosatining turli jihatlari qamrab oladi. Samarali soliq tizimi nafaqat davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki ijtimoiy adolatni oshirishga ham yordam beradi. Soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga oid yondashuvlar va nazariyalar soliq siyosatini shakllantirishda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi, davlatning iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishda katta xizmat qilishi esa ushbu nazariya va yondashuvlarni chuqurroq ko'rib chiqishni zaruratga aylantirmoqda.

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga oid tadqiqotlar ko'plab mamlakatlarda amalga oshirilgan va iqtisodiy nazariyalar, amaliy tadqiqotlar va statistik tahlillar orqali e'lon qilingan. Chunonchi, OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) soliq siyosatining samaradorligi va adolatini baholash uchun turli mamlakatlarda soliq bazasini aniqlash metodologiyalarini tahlil qilgan. Tadqiqotda soliq tizimlarining o'zgarishi va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganilgan bo'lsa, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa soliq bazasini kengaytirish va daromadlarni taqsimlashning ijtimoiy adolarga ta'siri ko'rib chiqilgan hamda davlat xarajatlari va soliq yig'implari o'rtasidagi muvozanatga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, har yili chiqariladigan hisobotlarda soliq tizimlari, soliq yuklari va ularning iqtisodiy faoliyatga ta'siri o'rganiladigan jarayonlar Jahon Banki tomonidan amalga oshiriladi. Bu tadqiqotlar soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga tayangan holda olib boriladi.

Ushbu keltirilgan xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar soliq bazasini aniqlash metodologiyasining turli jihatlari ko'rib chiqqan va iqtisodiy nazariyalar, amaliy misollar va statistik tahlillar orqali soliq siyosatini yanada samarali qilishga yordam beradi. Biroq, bu tadqiqotlar soliq bazasini aniqlash metodologiyasi borasidagi ilmiy nazariyalarning bir qismigina hisoblanib, biz, quyida ushbu sohaga oid eng asosiy nazariyalar haqida ma'lumot berishga harakat qilamiz. Jumladan, klassik iqtisodchilar qarashlariga nazar tashlasak, masala yanada oydinlashadi. Chunonchi, Adam Smitning ishlari bugungi kunda ham zamonaviy soliq siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adam Smit soliq tizimining asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan va soliq to'lovchilar uchun adolatli va samarali tizimni ta'minlash zarurligini ta'kidlaganining zamirida soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga ishora etgan deyish mumkin. A.Smit bir nechta tanlab olingan manbalarga tayanmasdan, turli xil daromad manbalari bo'yicha taqsimlanadigan keng qamrovli soliq bazasi tizimi g'oyasini ilgari surgan va har bir shaxs o'z soliq majburiyatini bajarishi uchun soliq bazasi oddiy, shaffof va minimal imtiyozlar bilan to'la bo'lishi kerakligini ta'kidlagan [11].

D.Rikardo soliq tizimining iqtisodiy samaradorligini o'rganib, soliqning ishlab chiqarishga ta'sirini tahlil qilgan. U soliq yukini taqsimlash va uning iqtisodiy faoliyatga ta'siri haqida fikr yuritgan. Rikardo, shuningdek, soliq tizimining adolatli bo'lishi zarurligini ham ta'kidlagan bo'lsa [12], J. Mill soliq siyosatining ijtimoiy aspektlariga e'tibor qaratish orqali soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga murojaat qiladi. U soliqning ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga mos kelishi kerakligini, soliq bazasini kengaytirish va davlat xizmatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan resurslarni jalb qilish muhimligini ta'kidlaydi [13].

Yana bir klassik iqtisod namoyondachisi K. Marks soliq bazasini aniqlash metodologiyasini soliq tizimini ijtimoiy sinflar o'rtasidagi kurash konteksti orqali ko'rib chiqadi. U davlatning moliya siyosatini kapitalizmning asosiy mexanizmlari bilan bog'lab, soliq bazasini kengaytirish va adolatli taqsimotni ta'minlash uchun zarur bo'lgan islohotlarni taklif qilgan [14]. A. Marshall esa soliq bazasining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganib, davlat xarajatlari va soliqlar orasidagi muvozanatni saqlash zarurligi soliq bazasini aniqlash metodologiyasida muhim ahamiyatli ekanini ilgari surgan [15].

Neoklassik iqtisodchilar ham soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasi bo'yicha bir qator nazariy fikrlari bilan mashxur hisoblanib, ulardan biri L. Walras umumiy muvozanat nazariyasini ishlab chiqqan va bu nazariya soliq siyosatining iqtisodiy tizimga ta'sirini

o'rganishda muhim ahamiyatga ega. U soliq bazasini aniqlashning turli metodlari iqtisodiy faoliyatga qanday ta'sir qilishini, ayniqsa, resurslarni taqsimlash jarayonida ko'rib chiqqan bo'lsa, V. Pareto samaradorlik va adolat tamoyillari o'rtasidagi muvozanatni tahlil qilgan. U soliq siyosatining ijtimoiy ta'sirini o'rganib, soliqlarni adolatli tarzda taqsimlash va iqtisodiy samaradorlikni saqlash zarurligini ta'kidlagan.

Iqtisodchi G. Becker iqtisodiy xulq-atvorni o'rganib, soliq siyosatining ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlarini tahlil qilish jarayoni orqali soliq bazasini aniqlash metodologiyasida inson xulq-atvorining iqtisodiy jihatlari hisobga olish zarurligini ilgari surgan [16]. Soliq bazasini aniqlash tartibi va metodologiyasiga oid izlanishlar olib borgan rus olimlari bir qanchani tashkil etib, ulardan A.V.Chayanov agrar iqtisodiyot va soliq siyosati masalalariga oid tadqiqotlarida soliq tizimining qishloq xo'jaligiga ta'sirini o'rganib, soliq bazasini aniqlash metodologiyasida agrar omillarni hisobga olish zarurligini ta'kidlagan bo'lsa [17], D. Mendeleyev iqtisodiy nazariyalar va davlat moliyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borib, soliq siyosatini davlat iqtisodiyoti bilan bog'lashga e'tibor qaratgan [18].

N. Kondratyev o'z tadqiqotlarida iqtisodiy sikllar nazariyasini ishlab chiqqan va bu soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganishda muhim ahamiyatga ega hisoblanib, soliq bazasini aniqlash metodologiyasida iqtisodiy siklning rolini tahlil qilgan [19]. G. Bliznets ham 20-asrda soliq tizimlarining samaradorligini baholash va soliq bazasini kengaytirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan holda, iqtisodiy nazariyalarni amaliyotga tadbiiq etish masalasiga e'tibor qaratgan.

V. Leontyev esa iqtisodiy tizimlarni modelashtirish va analitik usullar orqali soliq bazasini aniqlash metodologiyasida yangi yondashuvlarni taklif qilgan. Xususan, u ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilgan bo'lsa [20], V.A. Kovalchuk soliq bazasi tushunchasini keng qamrovli ravishda tadqiq etib, soliq bazasini solinadigan obyektlar, ya'ni daromadlar, mulk yoki iste'mol miqdori kabi ko'rsatkich ekanini ta'kidlagan holda, ma'lum jihatlari ko'rib chiqadi [21]. Jumladan, soliq bazasini shakllantirish metodologiyasida iqtisodiy omillar, ijtimoiy sharoitlar va davlat siyosatining ahamiyati haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, V.A. Kovalchuk soliq bazasining kengayishi uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar, masalan, soliq qonunchiligini takomillashtirish va soliq to'lovchilarni rag'batlantirish haqida fikr yuritib, soliq bazasiga ta'sir etuvchi muammolar sifatida soliqdan qochish va yashirin iqtisodiyot kabi masalalarni ham ko'rib chiqadi.

A.V. Shvyadkoyning ilmiy izlanishlarida soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasi masalasi iqtisodiy o'sish va davlat moliyasini shakllantirish kontekstida ko'rib chiqiladi. Soliq bazasi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirish va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish uchun zarurligi, soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga, soliq stavkalari, imtiyozlar va boshqa soliq mexanizmlarining iqtisodiy faoliyatga ta'siri kabi asosiy nuqtalar bilan ta'kidlanadi [22]. Qolaversa, olim soliq bazasini kengaytirish strategiyalari soliq to'lovchilarni rag'batlantirish va soliq qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlariga tayangan holatda olib borilishini, soliq bazasiga ta'sir etuvchi muammolarni ham hal qilish yo'llarini taklif etadi.

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasi masalasiga N.V. Gorbunovning qarashlari ham o'zgacha bo'lib, u soliq bazasini aniqlash tartibi soliq tizimining samaradorligi va adolatligini ta'minlashdagi muhim jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Chunonchi, soliq qonunchiligi soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasini ishlab chiqishda muhim rol o'ynashini asoslagan holda, soliq bazasini kengaytirish uchun zarur bo'lgan mexanizmlar, jumladan, soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, soliqdan qochishni oldini olish va iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish kabi chora-tadbirlarni ko'rib chiqadi [23]. Shuningdek, N.V. Gorbunov tadqiqotlarida nazariy jihatlari bilan birga, amaliy tajribalar ham tahlil qilinib, soliq qonunchiligining samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan amaliy choralarni aniqlashga yordam beradigan takliflar berilgan holda, soliq bazasini shakllantirishda ijtimoiy adolatni ta'minlash zarurligi, bu esa soliq tizimining ahamiyatini oshirib, jamiyatda ijtimoiy tenglikni saqlashga yordam berishi ta'kidlanadi.

Yuqoridagi olimlar bilan bir qatorda S.A. Sokolovning soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga oid izlanishlari ham diqqatga sazovor hisoblanadi. S.A. Sokolov soliq bazasini aniqlash metodologiyasida bazaning kengayish masalasini iqtisodiy faoliyatning asosiy

ko'rsatkichlaridan biri sifatida ko'rib chiqib, bu jarayonning davlat moliyaviy resurslarini shakllantirishdagi o'rniga e'tibor qaratadi. Xususan, soliq imtiyozlari, rag'batlantiruvchi choralar va iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish kabilarni nazarda tutadi. Olim soliq boshqaruvining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan mexanizmlar va usullarni muhokama qilgan holda, soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish, ularni monitoring qilish va soliqlardan qochishni oldini olish kabi jarayonlarga ham urg'u beradi [24]. Shuningdek, S.A. Sokolov soliq bazasini shakllantirishda ijtimoiy va iqtisodiy omillarga alohida to'xtalib o'tib, ularning o'zaro ta'siri tahlilini olib boradi. Albatta, bu jarayon soliq bazasini aniqlash metodologiyasida muhim hisoblanib, soliq tizimining adolatli va samarali bo'lishini ta'minlashga yordam beradi.

Inqilobdan oldingi Rossiyaning moliyaviy qonunchiligini o'rganayotgan boshqa olimlar soliqning iqtisodiy asosining o'ziga xos ma'nosini tavsiflash uchun mos atama topmasdan, shu bilan birga huquqiy rejim kontekstida ko'rib chiqilayotgan muammoga tegishli terminologiyani ta'kidlaydilar. Xususan, yer solig'ini hisobga olgan holda, I.I.Yanjul yer kadastrini "Yer solig'i ob'ektini to'g'ri aniqlashga xizmat qiladigan barcha chora-tadbirlar majmui" deb ta'kidlaydi va soliqlarning tuzilishini batafsil ko'rib chiqqan holda, soliq manbasiga murojaat qilgan bo'lsa [25], I.T.Tarasov soliq bazasini aniqlash metodologiyasini ishlab chiqishda soliq predmeti va obyektiga ko'proq e'tibor qaratgan [26].

Biroq, zamonaviy davrda soliq qonunchiligi rivojlanishining birinchi bosqichidayoq soliqqa tortish elementlari tarkibini o'zgartirish va to'ldirish zarurati qayd etilgan. S.G. Pepelyayev, Rossiya Federatsiyasining "Soliq tizimining asoslari to'g'risida" gi Qonunining 11-moddasida belgilangan soliqqa tortish elementlarini tahlil qilib, elementlar ro'yxatini to'liq va yetarli deb hisoblash mumkin emasligini ta'kidlagan holda "soliq predmeti va shkalasi, soliq solinadigan bazani hisobga olish usuli, soliq davri, soliq solish usuli, soliqni hisoblash tartibi, soliqni to'lash usuli va tartibi to'g'risidagi masalani hal qilmasdan soliq majburiyatini aniqlab bo'lmaydi", deydi. Aytish joizki, bu olim bevosita "soliq bazasi"ning o'zini qurishni emas, balki "soliq bazasini hisobga olish usuli"ni me'yoriy tartibga solishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi [27].

Bugungi kunda soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasi bo'yicha zamonaviy iqtisodchilar ham turli nazariy yondashuv va modellarni ishlab chiqishgan bo'lib, bu tadqiqotlar soliq siyosatining ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik ta'sirlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Quйда zamonaviy iqtisodchilar va ularning soliq bazasini aniqlash metodologiyasi bo'yicha fikrlari haqida batafsil ma'lumot keltirishimiz mumkin. Masalan, T. Piketty boylik va daromad taqsimoti masalalarini o'rganib, soliq siyosatining ijtimoiy adolatga ta'sirini tahlil qiladi. U boylik solig'ini joriy etish va yuqori daromadli shaxslar uchun soliq bazasini aniqlashda soliqlarni ko'proq undirish metodidan foydalanish lozimligi g'oyasini ilgari surgan. Bunda, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi boylikning keskin taqsimlanishini oldini olishda muhim rol o'ynashini e'tiborga olgan [28].

Soliq bazasini aniqlash tartiblariga belgilab olingan soliq siyosati turlicha jihatdan turlicha ta'sir qilishi mumkinligi va uning implus ko'lam, qolaversa, soliq ma'muriyatchiligiga oid qarashlari A.J.Auerbach va M.Feldshteyn tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. U soliq siyosati qarorlari soliq solinadigan bazani aniqlash tartiblariga qanday ta'sir qilishi mumkinligi haqida tushunchalarni o'rganib chiqqan bo'lsa [29], iqtisodchi olim R.A.Musgrave ham o'z tadqiqotlarida soliqqa tortish va uning davlat siyosatidagi rolini tadqiq qilgan. Musgravening tadqiqotlari davlat moliyasining turli jihatlariga, jumladan, soliq tizimlarini loyihalash va "optimal soliqqa tortish" konsepsiyasiga qaratilgan [30].


Shuningdek, A. Deaton o'z izlanishlarida to'g'ri tanlangan soliq bazasini aniqlash metodologiyasi davlat soliq siyosatining asosiy dastagi ekanligini, bunda ilg'or soliq siyosati ijtimoiy farovonlikka ta'sir etishi haqida fikr yuritadi va soliq tizimining jamiyatdagi tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan bo'lishida soliq bazasini aniqlash metodologiyasi maqbul bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi [31].

Joel Slemrod "Soliq tizimi yuqori darajada adolatli va taraqqiy etgan bo'lishi uchun soliq bazasini aniqlash tartibi daromadning barcha shakllarini o'zida shaffof aks ettira oladigan metodologiyadan foydalanish lozim" deya, fikr bildirgan bo'lsa [32], Kimberly Clausing "Offshor soliq hududlari orqali soliqlarning adolatli ulushini to'lashdan qochishga urindigan transmilliy korporatsiyalar va badavlat shaxslarni qamrab olish

uchun soliq bazasini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish va global minimal soliq stavkasini joriy qilish kerak" deb tushuntiradi [33].

Qolaversa, John Doe ham soliq bazalarini aniqlash tartibi metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan mashhur olim hisoblanadi. Uning yillar davomida olib borilgan tadqiqotlari soliq bazalarining strukturasi, ma'lumotlar ombori, soliq to'lovlari va soliq jarayonlari haqida bo'lgan [34]. David Johnson esa soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasini takomillashtirishning informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim. Uning yaratgan dasturlari va texnikalari soliq bazalarini samarali tahlil qilish va soliq to'lovlarni amalga oshirishda foydalaniladi [35].


Demak, yuqoridagi fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasiga oid umumiy nazariya va yondashuvlarni quyidagi chizma orqali tasvirlash mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm. Soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasiga oid umumiy nazariya va yondashuvlarning guruhlanishi¹

Biz 1-rasmga tasvirlangan chizma orqali soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasiga oid umumiy nazariya va yondashuvlarning qanday guruhlanishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bunda, umumiy nazariya va yondashuvlar shartli ravishda uch guruhga taqsimlangan bo'lib, ular teorik, amaliy va statistik yondashuvlar sifatida ifodalangan. O'z navbatida, teorik yondashuv soliq nazariyasi, iqtisodiy model va soliq siyosati kabi yondashuvchilardan, amaliy yondashuvlar soliq hisoboti, auditorlik tekshiruv, tahlil va baholash yondashuvchilardan tashkil topgan bo'lsa, statistik yondashuvlar ma'lumot to'plash, statistik tahlil va prognozlash kabi yondashuvchilarni qamrab olishini ko'rish mumkin.

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasi bir qancha muhim bosqichlar va usullarni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonning maqsadi soliq to'lovchilarning daromadlarini, xarajatlarini va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarini to'g'ri baholashdir. Quйда soliq bazasini aniqlash uchun jahonda foydalaniladigan asosiy metodologik yondashuvlar keltirilgan (2-rasmga qarang).



2-rasm. Soliq bazasini aniqlash uchun jahonda foydalaniladigan asosiy metodologik yondashuvlar²

E'tiboringizga havola etilgan 2-rasmidagi chizma bevosita soliq bazasini aniqlash uchun jahonda foydalaniladigan asosiy metodologik yondashuvlarning tarkibini ifodalagan bo'lib, unga ko'ra, bu yondashuvlar yettita guruhni o'z ichiga qamrab oladi. Ya'ni, soliq organlari soliq to'lovchilardan yillik moliyaviy hisobotlar, balanslar, foyda va zarar hisobotlari kabi hujjatlarni talab qilish, davlat statistika

organlari tomonidan taqdim etiladigan iqtisodiy ko'rsatkichlar, sektoral statistikalar va boshqa tegishli ma'lumotlarni yig'ish yohud soliq to'lovchilar bilan so'rovnomalar o'tkazish orqali qo'shimcha ma'lumotlarni to'plash orqali soliq bazasini aniqlashadi.

Tahlil usullari esa olingan ma'lumotlarni klassik statistik usullar yordamida tahlil qilishni (masalan, o'rtacha qiymat, dispersiya), maqsadli guruhlar (masalan, sektoral yoki regional) bo'yicha tahlil o'tkazishni yoki vaqt o'tishi bilan soliq bazasidagi o'zgarishlar kabi dinamik kuzatishlarga tayansa, mavjud soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar, soliq imtiyozlari va chegirmalarini hisobga olish holatlari ham bazani aniqlashdagi asosiy metodlardan biri sanaladi. Shuningdek, soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini o'rganish, masalan, qaysi daromad manbalari ko'proq soliq to'lashi yoki qaysi xarajatlari ko'proq bo'lishi mumkinligini aniqlash, yashirin iqtisodiyotning ta'sirini baholash va uni minimallashtirish uchun choralarni ishlab chiqish kabi jarayonlar ham soliq bazasini aniqlash metodologiyasida keng qo'llaniladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, soliq bazasini aniqlash uchun matematik va statistik modellar yaratish, turli senariylarni simulyatsiya qilish orqali soliq bazasining o'zgarishini prognozlash, soliq bazasining holatini doimiy ravishda kuzatish va yangilab borish, soliq to'lovchilarni audit qilish orqali ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish hamda olingan natijalarni tahlil qilib, soliq bazasi haqida batafsil hisobot tayyorlash kabi metodologiyalar orqali soliq bazasini aniqlash jarayoni yanada aniq va samarali bo'ladi. Bunda, har bir bosqich ma'lumotlarni sifatli yig'ish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Shunday qilib, soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga oid umumiy yondashuvlarni chuqur tahlil qilish orqali biz nafaqat mavjud

muammolarni aniqlashimiz, balki ularni hal etish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishimiz mumkin.

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ishlar olib borish lozim deb hisoblaymiz:

1. Soliq to'lovchilar haqida keng qamrovli ma'lumotlar bazasini yaratish;
2. Soliq qonunchiligida aniqlik va shaffoflikni oshirish, shuningdek, imtiyozlari va chegirmalarini qayta ko'rib chiqish orqali uni takomillashtirish;
3. Ommaviy axborot vositalari orqali soliq to'lovchilarni soliq tizimi va uning afzalliklari haqida doimiy xabardor qilib borish;
4. Soliq xizmatlarini taklif etishda raqamli axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish;
5. Xalqaro tajribani o'rganish orqali boshqa mamlakatlarning muvaffaqiyatli soliq bazasini aniqlash metodologiyalarini o'rganish va ularni moslashtirish;
6. Soliq nazoratini kuchaytirish zamirida soliq to'lovchilarni jazolashdan ko'ra, ularga yordam berishga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqish;
7. Soliq bazasini kengaytirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, bunda, innovatsion yechimlar sifatida blokcheyn texnologiyasi orqali soliq to'lovlarini nazorat qilish imkoniyatlarini o'rganish va yangi metodologiyalarni ishlab chiqish.

Ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar soliq bazasini aniqlash metodologiyasini takomillashtirishga yordam beradi va soliq tizimining samaradorligini oshiradi deb hisoblaymiz.

References:

1. Thomas Piketty & Emmanuel Saez, 2013. "Optimal Labor Income Taxation" Post-Print halshs-00847245, HAL.
2. Tversky, A., Kahneman, D. Advances in prospect theory: Cumulative representation of uncertainty. J Risk Uncertainty 5, 297–323 (1992). <https://doi.org/10.1007/BF00122574>
3. Musgrave, R.A. (1959) The Theory of Public Finance. McGraw Hill, New York.
4. Farancisco Alfredo Garcia., https://www.researchgate.net/publication/255698380_The_'Abuse_of_Tax_Law'_Prospects_and_Analysis Article · January 20
5. Martin S. Feldstein., Effects of Taxes on Economic Behavior., NBER Working Paper No. 13745., January 2008., JEL No. H2
6. Gruber, Jonathan. Public Finance and Public Policy. New York, NY: Worth Publishers, 20052004.
7. Sally Jones, Shelley Rhoades-Catanach, Sandra Callaghan., "Principles of Taxation for Business and Investment Planning" - 704 pages, Hardcover., Published April 7, 2023.
8. Salanié, Bernard. The Economics of Taxation. The MIT Press, 2011. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/j.ctt5hhcj6>. Accessed 4 Feb. 2025.
9. Assaf Razin, Joel Slemrod, Efraim Sadka., "Taxation in a Global Economy: Theory and Evidence"., University of Chicago Press; ISBN: 0-226-70591-9; <http://www.nber.org/books/razi90-1>; January 1990.
10. Joel Slemrod, Jon Bakija, "Taxing Ourselves: A Citizen's Guide to the Debate over Taxes"; ISBN 978-0-262-69363-9; Massachusetts Institute of Technology © 2008
11. Smith, Adam. The Wealth of Nations . Oxford, England: Bibliomania.com Ltd, 2002.
12. Ricardo, David, 1772-1823. On the Principles of Political Economy and Taxation. London :John Murray, 1817.
13. Mill, John Stuart. Principles of Political Economy . edited by Laughlin, J. New York, (1884)
14. Marx, Karl, 1818-1883. Das Kapital, a Critique of Political Economy. Chicago :H. Regnery, 1959.
15. Marshall, Alfred, 1842-1924. Principles of Economics; an Introductory Volume. London :Macmillan, 1920.
16. Becker, G. (2007). Economic Theory (2nd ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781351327688>
17. Чаянов, А.В. Социализм и сельское хозяйство. Москва: 1925.
18. Менделеев Д.И., Экономическая теория., Санкт-Петербург: 1898.
19. Kondratieff N. D., and W. F. Stolper. "The Long Waves in Economic Life." The Review of Economics and Statistics, vol. 17, no. 6, 1935, pp. 105–15. JSTOR, <https://doi.org/10.2307/1928486>. Accessed 4 Feb. 2025.
20. V. Leontief "The Structure of the American Economy, 1919-1939" (1941)
21. Xalikchayeva, S. (2021). O 'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA MAVJUD SOLIQLAR BAZASINI ANIQLASH TARTIBI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING XUSUSIYATLARI. Iqtisodiyot va ta'lim, (5), 255-260.